

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.U.Xamidjanov	
Sport kurashi turlariga saralash va erta yo'naltirishda yakkakurash elementlariga ega harakatli o'yinlardan foydalanish metodlari.....	85
A.A.Parmonov	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari natijalarini ilmiy-nazariy tahlili	90
M.A.Tursunboyeva	
Tabiiy fanlar fakultetlarida ingliz tilini o'qitishning mazmuni tushunchasining lingvodidaktik tavsifi	97
M.I.Boymanova	
Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o'quvchilar kompetentsiyasini shakllantirish	102
A.Matkarimov	
O'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik omillari (xalqaro baholash tadqiqotlari misolida)	105
N.M.Xodjibolayeva	
Al-Farg'oniy va Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish masalalari	110
M.Sh.Dehqonova	
Bo'lajak o'qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi	114
N.Sayimbetova	
Talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	117
A.Abdullayev	
Jismoniy mashqlar inson "Hayotiy quvvati"ni tiklash vositasi	121
J.Sh.Mamayusupov	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish zarurati.....	125
S.Abdullayev	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini kognitiv kompetentligini shakllantirishning pedagogik mazmuni.....	129
D.O.Djalilova	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germeneytik kompetentligini rivojlantirishning mazmun-mohiyati.....	138
M.M.Азизов	
Что такое нордическая ходьба (nordic walking), финская ходьба, северная ходьба с палками, скандинавская ходьба?	141
L.Z.Xolmurodov	
9-10 yoshdagi bolalarning muvozanat saqlash funksiyasini rivojlantirishning yoshga xos me'yorlari.....	147
I.M.Saidov	
Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning ilmiy tavsifi	151
O.A.Xo'jaqulov	
Bo'lajak ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompyentlikni rivojlantirishning pyedagogik shart-sharoitlari	155

FALSAFA

A.A.Qambarov	
Abdurauf fitrat ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyatining falsafiy tahlili	161
B.B.Namozov	
Movarounnahrda temuriylar davrida tasavvuf ijtimoiy ma'naviy hodisa sifatida	166
M.T.Voxidova	
Yoshlarda barqarorlik va bag'rikenglikni namoyon bo'lishining ijtimoiy-axloqiy jihatlari.....	172
I.M.Arzimatova	
Ayol rahbarlarning axloqiy va estetik madaniyatini integratsiyalash asosida "Rahbar ayol" portretini shakllantirish vazifalari	176

**TABIY FANLAR FAKULTETLARIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING MAZMUNI
TUSHUNCHASINING LINGVODIDAKTIK TAVSIFI****ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ КОНЦЕПЦИИ СОДЕРЖАНИЯ
ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ФАКУЛЬТЕТАХ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК****LINGUODIDACTIC DESCRIPTION OF THE CONCEPT OF THE CONTENT OF
TEACHING ENGLISH AT THE FACULTIES OF NATURAL SCIENCES****Tursunboyeva Muxlisa Anvar qizi¹**¹Farg'ona politexnika instituti, O'zbek tili va tillarni o'rgatish kafedrasida assistenti**Annotatsiya**

Ushbu maqola tabiiy fanlar fakulteti talabalarining ingliz tili o'qitishning lingvodidaktik tushunchasini shakllantirish muammolariga qaratilgan. Unda ushbu masala yuzasidan topilishi kerak bo'lgan yechimlar, bir qator takliflar misollari bilan keltirib o'tilgan. Shu bilan birgalikda, qator tadqiqotchilar fikrlari o'rganilgan.

Аннотация

Данная статья посвящена проблемам студентов факультета естественных наук по формулированию лингводидактической концепции преподавания английского языка. В ней приводятся решения, которые можно найти по этому вопросу, с примерами ряда предложений. В то же время изучаются мнения ряда исследователей.

Abstract

This article focuses on the problems of students of the Faculty of Natural Sciences to formulate the linguodidactic concept of teaching English. It cites solutions to be found on this issue, with examples of a number of proposals. At the same time, the opinions of a number of researchers are studied.

Kalit so'zlar: lingvodidaktika, lingvistik kompetensiya, tabiiy fanlar, nofilologik yo'nalish, kasbiy kompetensiya, motivatsiya, terminologiya.

Ключевые слова: лингводидактика, лингвистическая компетентность, естественные науки, нефилологическая направленность, профессиональная компетентность, мотивация, терминология.

Key words: linguodidactics, linguistic competence, Natural Sciences, non-philological orientation, professional competence, motivation, terminology.

KIRISH

Tabiiy fanlar fakultetlarida ingliz tili o'qitish jarayonini tashkil etishda o'qituvchilar qator muammolarga duch keladilar. Muammolar sifatida talabanning fanga bo'lgan qiziqishining yuqoriligi, o'rganilayotgan tilning kasbiy mahorat bilan aloqasini tashkil etilishi, turli fanlarning integratsiyasi va o'quv mashg'ulotlarini tashkil etilishi kabilar mazkur muammolar qatoriga kiradi.

Agar lingvistik kompetensiya tilning fonetik, leksik, grammatik materiallariga yo'naltirilgan bo'lsa, kommunikativ kompetensiya nutq faoliyatining barcha turlari (tinglash, so'zlashish, o'qish, yozish)ni o'zida qamrab oladi.

O'qituvchi kasbiy faoliyati davomida nafaqat ingliz tili va uni o'qitish usullarini, balki mutaxassisning o'ziga xos xususiyatlarini ham bilishi kerakligini bir necha bor ta'kidlab o'tganmiz. Mutaxassislikka yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitish, amaliyotda qo'llaniladigan tegishli terminologiyadan foydalangan holda ingliz tilida mashqlarni tanlash va gapirish, yozish, o'qish, tinglash qobiliyatlari integratsiyasi ketma-ketligini tashkil qilish juda ko'p mashaqqatli mehnat talab etadi [1.48.155].

So'nggi yillarda bo'lajak bakalavrlarning kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda ularning chet tili (ingliz tili)ni bilishlariga bo'lgan talab ancha ortdi. Shu sababdan nofilologik, xususan tabiiy fanlar yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda [2.29-31]. Tabiiy fanlar fakultetlari faoliyatida ham yuqoridagi masalalarni hisobga olgan holda lingvodidaktika masalalarini ko'rib chiqishga kerakligi aniqlandi.

Ma'lumki, lingvodidaktika til o'qitishning umumiy nazariyasi hisoblanadi. U o'rganilayotgan materialning tabiatiga qarab uning didaktik maqsadlari, vazifalari va til o'qitishning umumiy qonuniyatlarini, muayyan tilni o'qitish mazmuni, usullari va vositalarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. D.V.Bulatovanning fikriga ko'ra, lingvodidaktika chet tillarini o'qitish nazariyasining metodologik asosi bo'lgan didaktik bo'limi hisoblanadi [3.28.81].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotlarda lingvodidaktika va metodologiya sohalari nazariy va amaliy jihatdan bir-biriga bog'lanmaganligini kuzatish mumkin. F.M.Litvinko o'z tadqiqotlarida lingvodidaktikaning umumiy qonuniyatlari, chet tili aloqasi mexanizmlarining ishlashi, ularni shakllantirish usullarini o'rganish mobaynida lingvodidaktikaning obyekti aslida til o'rganish jarayoni, uni tadqiq qilishning nazariy asoslanishi til ta'limi tushunchalari, tamoyillari, mazmuni, ta'limning tashkiliy shakllari, tadqiqot mexanizmlari va o'quv jarayonini qurish ekanligini aniqladi [4.56.2-3].

M.J.Jusupov tadqiqot ishlariga murojaat qilsak, lingvodidaktika va metodologiyaga boshqacha ta'rif berilganini ko'rishimiz mumkin: „Lingvodidaktika til o'qitishning nazariy asoslarini yaratish bilan shug'ullanadi. Metodologiya esa lingvodidaktik tadqiqotlar natijalarini amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi coha lingvistik xususiyatlarni hisobga olgan holda tillar o'qitish jarayoniga doir qonuniyatlarni tavsiflaydi“ [5.42.17-23].

Tadqiqotchilardan A.K.Krupchenko o'z izlanishlarida professional lingvodidaktika tushunchasi ortida metodologiyalar (tadqiqot, menejment va modellashtirish sohasida), o'quvchining mutaxassisligiga yo'naltirilgan chet tillarini o'qitish, chet tilini o'qitishga qaratilgan kommunikativ kompetensiyaga doir ko'nikma va malakalar mutaxassisning lingvistik jihatlarini tavsiflovchi yangi bir soha tushunchalari degan xulosaga kelgan [6.50.310]. Lingvodidaktika sohasida kadrlar tayyorlashda hozirgi vaqtda ma'lum bir qonunlarni hisobga olish zarurati mavjuddir. Tabiiy fanlar fakultetlarida tillar o'qitish mazmunini tanlashda lingvodidaktikani hisobga olish masalasi ko'rib chiqilgan. A.K.Krupchenkoning ta'kidlashicha, lingvodidaktika dunyodagi millionlab muhandislar, olimlar va boshqa kasb vakillarining chet tilini xalqaro kasbiy ma'lumot va tajriba almashish vositasi sifatida o'zlashtirishga bo'lgan obyektiv ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqqanligini ko'rsatadi. Malakali mutaxassis tayyorlash jarayonida zamonaviy yondashuvlardan, ayniqsa, nofilologik fakultetlarda chet tilini o'qitishning nazariy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish talab qilinadi. Tadqiqotchilardan, G.I.Bogin, A.B.Bushev, N.D.Galskova, M.A.Bovtenko, R.K.Minyar-Beloruhev va A.S.Markosyan kabi bir qator tadqiqotchilar lingvodidaktika yuqoridagi masalalarni ilmiy jihatdan isbotlagan holda quyidagi lingvodidaktikani o'rganish quyidagi lingvodidaktik qonuniyatlarni o'z ichiga oladi:

1. Kasbga oid lingvodidaktikaning paydo bo'lishini o'rganish;
2. Kasbiy lingvodidaktikaning o'ziga xos tamoyillari tizimini ishlab chiqish;
3. Bo'lajak mutaxassislarga chet tilini o'qitish maqsadlarini amalga oshirish;
4. Ma'lum bir kasbga yo'naltirilgan chet tillarini o'qitish mazmunini o'rganish;
5. Malakali mutaxassisning til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'qitish metodi va shaklini to'g'ri tanlay olish;
6. O'quv vositalarini, shuningdek, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, jihozlar, texnik o'quv vositalarini tanlash va ishlab chiqish vaqtida chet tili va sohaga oid fanni o'zaro integratsiyalashni ta'minlash;
7. Chet tili o'qituvchisining ingliz tilida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasini qo'llash. [7.33.81].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ingliz tili ta'limining amaliy maqsadini ro'yobga chiqarishda, ya'ni axborotlarni til vositasida berish va qabul qilishda talabalar tilga oid bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallaydilar, umumkasbiy, mutaxassislik va ixtisoslik fanlaridan sohaviy ma'lumotlarni o'zlashtiradilar va pirovard natijada, kamolotga erishadilar. Ingliz tilidan mutaxassislik bo'yicha sohaviy matnlarni o'qish esa talabalarni dasturiy bilimlarini yanada boyitishi, jumladan, kasbga oid sohaviy atama va tushunchalarni puxta o'zlashtirishlariga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Chet tilini o'rganishda talabalarining barqaror motivatsiyasini shakllantirishda yuqorida aytilganlarning barchasini hisobga olinmog'i kerak, bu chet tilini o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatning eng muhim psixologik va lingvodidaktik omillaridan biridir. Ta'limdagi mavjud kamchiliklarga motivatsiya, hatto uslubiy jihatdan ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [8.58.123]. Ushbu jihatlar o'quv jarayonida talabalarining psixologik xususiyatlari va omillarini hisobga olishni o'rganishga imkon beradi. A.A.Mirolyubov, Ye.V.Dubrovskaya, N.I.Gez, S.F.Shatilov, S.K.Folomkina va Ye.N.Solovova kabi ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarida chet tillarini o'qitish mazmunida uchta komponent - lingvistik, psixologik va uslubiy komponentlar muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Yuqorida biz o'z ishimizda tabiiy fanlar fakultetlarida ingliz tilini o'qitishning lingvistik va psixologik xususiyatlarini ko'rib

PEDAGOGIKA

chiqdik. Endilikda kasbiy maqsadlar uchun ingliz tili o'qitishning uslubiy asoslari bo'yicha o'z mulohazalarimizni bildirish uchun metodologiyaga murojaat qilishimiz mumkin.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida ingliz tilini lingvodidaktik jihatdan o'qitish turli sohalarida malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish doirasida eng muhim vositalardan biri bo'lishi bilan birgalikda o'qitish tizimini tezkor ravishda o'zgartirib kerakli vaqtda o'qitish metodlarini tubdan isloh qilish talab qilinmoqda.

Til ta'limning lingvodidaktik mohiyatini tushuntirishda turli uslubiy yondashuvlar mavjud. V.A.Buxbinderning so'zlariga ko'ra, ingliz tili o'rganishda mashqlar uch turga bo'linadi: axborot, operatsion va motivatsion. Birinchi bosqichda mashqlar materialni tushunish va o'zlashtirish kerakli ma'lumotlarni birlashtirish orqali ta'minlanadi. Ikkinchi bosqichda kerakli materiallar yordamida topshiriqlarni ishlab chiqish amalga oshiriladi. Uchinchi bosqichda nutq qobiliyatlari yaxshilanadi [9.31.3].

O'qitish tarkibini tuzishda biz darslikni uchta asosiy qismga: leksik mavzu, grammatik ko'nikmalar va sohaviy mashqlarga bo'lishni taklif qildik. Leksik qismda biz mutaxassislikka oid matnni tanlab quyida kerakli yangi so'zlar va iboralar keltirdik. Misol uchun, „Conception of Chemistry“ („Kimyo fani tushunchasi“) mavzusidagi matn. Matn, kerakli so'z va iboralar bilan tanishish: Role of laboratory in Chemistry (Kimyo fanida laboratoriyaning o'rni), Classification of Organic Chemistry (Organik kimyo tasnifi), Organic nomenclature (Organik nomenklatura), Everyday Chemistry (Kundalik kimyo), Atoms (Atomlar).

Darsning grammatik qismida, bizning fikrimizcha, inglizcha suffikslar va old qo'shimchalarni ma'lum terminlarni yaxshi eslab qolishda ko'mak berishini hisobga olgan holda o'rganish asosli bo'ladi, chunki bunda grammatika o'z xususiyatiga ko'ra matnga, ya'ni darsning leksik qismiga bog'liq. Tabiiy fanlar fakulteti talabalari ingliz tilida kimyo fani bo'limlari turlari bilan tanishib chiqib, suffikslardan foydalanishi va ushbu mavzu bo'yicha takliflar kiritishi mumkin. Masalan: Combine the words in brackets with suitable SUFFIXES to complete the Choose from the following suffixes: -er, -or, -ing, -ion, -ness, -ity :

1. In chemistry, the _____ (dense) of many substances is compared to the _____ (dense) of water. 2. _____ (compress) is the reduction in size of data in order to save space or transmission time.

Bunday hollarda, biz leksika va grammatika o'rtasidagi bog'liqlik ahamiyatini taqdim eta olamiz.

Fonetik mashq uchun biz undosh [z] tovushni tanlaymiz va bu tovushga turli xil so'zlar va iboralarni tinglash orqali talabani eshitish qobiliyatini rivojlantiramiz va o'qish va gapirishda bu tovushni to'g'ri talaffuz qilishga harakat qilishiga ko'mak beramiz: [z]- zip, -[z]- frozen, -[z] has. Ushbu turdagi darsni tashkil qilish orqali, birinchi navbatda, biz texnik fakultet talabalarining gapirish, o'qish, yozishning barcha ko'nikmalarini birlashtira olgan holda ularning so'z boyligini zarur kasbiy so'zlar va atamalar bilan boyitib, o'z fikrlarini grammatik jihatdan to'g'ri ifoda etishlarini shakllantira olamiz.

Bizning fikrimizcha, amaliy topshiriqlar va mashqlarni bajarish o'rganilayotgan hodisalarning xususiyatlari va belgilarini idrok etishga yordam beradi. Shu bilan birga, o'quvchini kognitiv faoliyatga kirishishi jarayoni yuzaga keladi. Natijada, talaba o'z ongida ma'lum miqdordagi g'oyalarni to'plagan holda erkin fikrlashni boshlaydi. Tushunish - ma'lum bir ma'lumotni anglash natijasi bo'lib, ko'nikmanig bu usuli odatda "bajarish orqali o'rganish" deb ataladi. Yuqoridagi misolni amalda ingliz tilini o'rganish jarayonida fanlararo aloqalar va kasbiy ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun bevosita foydali ekanligini ta'kidlashimiz mumkin.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan dastur va loyihalar bevosita talabalarning chet tilidagi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mazmunini idrok etishga tayyorgarlikni oshirish maqsadida bizni tabiiy fanlar fakultetlarida ingliz tilini o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishimiz kerakligini ko'rsatdi.

Bizning fikrimizcha, amaliy topshiriqlar va mashqlarni bajarish o'rganilayotgan hodisalarning xususiyatlari va belgilarini idrok etishga yordam beradi. Shu bilan birga, o'quvchini kognitiv faoliyatga kirishishi jarayoni yuzaga keladi. Natijada, talaba o'z ongida ma'lum miqdordagi g'oyalarni to'plagan holda erkin fikrlashni boshlaydi. Tushunish - ma'lum bir ma'lumotni anglash natijasi bo'lib, ko'nikmanig bu usuli odatda "bajarish orqali o'rganish" deb ataladi. Yuqoridagi misolni

amalda ingliz tilini o'rganish jarayonida fanlararo aloqalar va kasbiy ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun bevosita foydali ekanligini ta'kidlashimiz mumkin.

Kerakli metodik materiallarni tayyorlashda kasbiy yo'nalish maqsadida o'rgatilayotgan ingliz tilini amalda qo'llanilishini takomillashtirishga yordam beradi. Kerakli metodik materiallarni tayyorlashda kasbiy yo'nalish maqsadida o'rgatilayotgan ingliz tilini amalda qo'llanilishini takomillashtirishga yordam beradi. Agar lingvistik kompetensiya tilning fonetik, leksik, grammatika materiallariga yo'naltirilgan bo'lsa, kommunikativ kompetensiya nutq faoliyatining barcha turlari (tinglash, so'zlashish, o'qish, yozish)ni o'zida qamrab oladi.

Darslarni tashkil etish jarayonida, nafaqat, tilni o'rganish va o'qitish, balki talabalarni baholash ham chetda qolib ketmasligi kerak. O'qituvchining adolatli bahosi talabalarni rag'batlantirishi va sezilarli darajada mashg'ulotdagi vaziyatga ta'sir qilishi mumkin. O'qitishning innovatsion turlari rivojlanishi bilan talabalar bilimini baholash turlari ham faollashmoqda. Bizning fikrimizcha, rubrika - talabalarining javoblari sifatini baholashga yordam beradigan o'ziga xos qo'llanma. U ko'pincha elektron jadval formatida taqdim etilib undan o'qituvchilar ham, talabalar ham o'z ishlarini faollashtirish va takomillashtirish orqali foydalanishlari mumkin [10.49.258].

XULOSA

Tabiiy fanlar yo'nalishlarida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chet tillari, xususan, ingliz tilini lingvodidaktik jihatdan o'qitish qator kamchiliklarga egaligini vaqtning o'zi ko'rsatmoqda. Chunki an'anaviy ta'lim talabalarining o'z-o'zini o'rganish qobiliyatini rivojlantirishga emas, balki umumiy ta'lim darajasini oshirishga qaratilganligidadir. Afsuski, nofilologik yo'nalish talabalari ingliz tili mashg'ulotlarida o'qituvchilarning ularga tayyor materiallarni taqdim etishlariga o'rganib qolishgan. Shundan kelib chiqib, biz texnik universitetlar talabalarining o'z ustilarida o'zlari ishlashini, ya'ni o'rganishni individuallashtirishga bo'lgan motivatsiyasini rivojlantirishni taklif etamiz. E.A.Gluxovaning so'zlariga ko'ra, "Kelajakda mutaxassisning har tomonlama shaxsiy ta'limi, uning professional muammolarni hal qilish uchun turli fanlardan ma'lumotlarni qayta ishlash, uni umumlashtirish, tizimlashtirish va tasniflash imkonini beruvchi dialektik fikrlash mexanizmini rivojlantirishi zarur". Ingliz tilini o'rganish jarayonida bo'lajak mutaxassis kasbiy va sohaviy ma'lumot hamda bilimlarni ingliz tilida o'rganadi va kasbiy mahoratini rivojlantiradi. Talabalar bunday sharoitga tezroq moslashishlari uchun o'quv dasturlaridagi berilayotgan kasbiy va sohaviy materiallarni talab darajasida ekanligi inobatga olinmog'i lozim.

Bizning fikrimizcha, faol o'qitish usullari deganda o'quvchilarning bilim faolligini rag'batlantiradigan va turli xil masalalarni hal qilish yo'llari borasida erkin fikr almashishni rag'batlantiradigan usullar tushunilishi shuningdek, dars mobaynida talabalar faolligi yuqori darajada namoyon bo'lishi kerak. Ko'pincha tadqiqotchilar ingliz tilida so'zlarni to'g'ri talaffuz qila olish kommunikativ kompetensiyada muhim muammo emas deb hisoblashadi. Ammo, bizning fikrimizcha, so'zlar va atamalarni to'g'ri talaffuz qilish kelajakdagi mutaxassisning kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyat kalitidan biridir. Shuni inobatga olib biz ishlab chiqqan "English for Chemistry" o'quv qo'llanmada fonetik ko'nikmalarni rivojlantirishga e'tibor berilgan. Shuningdek, o'quv qo'llanmada texnik fakultetlar talabalarining ingliz tilida so'zlarni to'g'ri talaffuz qila olishlari uchun kichik mashqlar tuzilgan.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Isroilova, D. M. (2018). Organizing and Conducting "Special Course" of Teaching Professionally Oriented Language at Magistracy. *Eastern European Scientific Journal*, (6).
2. Kizi, T. M. A. (2021). Teaching natural sciences and english language on the basis of integrative approach in higher education. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(1), 126-129.
3. Bulatova, D. V. (1999). Teoreticheskiye osnovy kursa obucheniya inostrannomu yazyku v neyazykovom vuze: dis.... d-ra ped. nauk.
4. Litvinko F. M. Lingvodidaktika uchebno-metodicheskiye materiali po uchebnoy discipline dlya spetsialnosti magistraturi. 1-21 81 05 Innovatsii vobucheniiazikam.
5. Турсунбоева, М. А. (2023). Проблемы Формирования Профессиональной Коммуникативной Компетенции Студентов Нефилологического Факультета На Иностранном Языке. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 14, 29-31.
6. Максимук, Л., Левонюк, Л., & Левонюк, Л. РЕАЛІЗАЦІЯ ПРИНЦИПІВ ПРОФЕСІЙНОЇ ЛІНГВОДИДАКТИКИ В ПРОЦЕСІ ІНШОМОВНОЇ ОСВІТИ НА НЕМОВНИХ СПЕЦІАЛЬНОСТЯХ ЗАКЛАДІВ ВИЩОЇ ОСВІТИ РЕАЛІЗАЦІЯ ПРИНЦИПІВ ПРОФЕСІЙНОЇ ЛІНГВОДИДАКТИКИ В ПРОЦЕСЕ ІНОЯЗЫЧНОГО. *Бугар Ганна, Чуньківська Іванна. Застосування*, 128.
7. Kizi, T. M. A. (2021). Teaching natural sciences and english language on the basis of integrative approach in higher education. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(1), 126-129.
8. Leontiev, A. N. (1981). Problemi razvitiya psixiki. Problemas del desarrollo de la psique), Moscú, Universidad Estatal de Moscú.

PEDAGOGIKA

9. Akramova, Z. (2022). READ TEXTS ON LOCAL LORE IN ENGLISH IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING.

10. Исраилова, Д. А. (2013). СЕМАНТИКО-СТРУКТУРНОЕ СТРОЕНИЕ АНТОНИМОВ В ПОСЛОВИЦАХ. *Наука и новые технологии*, (6), 273-277.